

UDK. 372.22:371.03

ONA TILI DARSLARIDA KREATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK AHAMIYATI

O'S.Qulmuminov – o'qituvchi

Termiz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: ona tili ta'limi, kreativ ko'nikmalar, ijodiy tafakkur, innovatsion metodlar, interfaol usullar, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash, ta'lim jarayoni.

Ключевые слова: обучение родному языку, креативные навыки, творческое мышление, инновационные методы, интерактивные методы, речевая культура, самостоятельное мышление, образовательный процесс.

Key words: native language education, creative skills, creative thinking, innovative methods, interactive methods, speech culture, independent thinking, educational process.

Kirish. Globallashuv jarayonida o'quvchilarning kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat tezkor o'zgarishlar va innovatsiyalarga asoslangan bo'lib, bu o'quvchilardan mustaqil fikrlash, yangicha yondashuv va ijodiy tafakkur qilish qobiliyatlarini talab etadi. Ayniqsa, ona tili darslarida bunday ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki til nafaqat kommunikativ vosita, balki tafakkur va shaxsiy rivojlanishning ham asosiy omillaridan biridir.

Kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ona tili darslarida interfaol usullar, muammoli ta'lim texnologiyalari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Bunday yondashuv nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil izlanish olib borish, fikrlarini erkin ifoda etish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim.

Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin.

Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Lukas va Spenserning fikricha: "Kreativ fikrlash bugungi yoshlarning rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi [1]. Bu ularga globallashuv sharoitida jadallik bilan o'zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan hamda "XXI-asr" ko'nikmalariga ega moslashuvchan ishchilarni talab qiladigan dunyoga moslashishga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o'rgatish bugungi kun o'quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali

yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi [2].

Boshlang'ich sinflarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik va gender xususiyatlarini aniqlagan F.A.Xayitova o'z izlanishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ o'qish madaniyatini shakllantirish yoki kreativ o'qish deganda istalgan o'quv fani doirasida qo'llash mumkin bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan boshlang'ich bilimlar sohasi tushunilishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Olima tadqiqot obyekti bilan bog'liqlikda "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ o'qish madaniyatini shakllantirish" deganda "o'quvchilarni turli o'quv topshiriqlarini bajarishi, vaziyatlarni hal etishda noodatiy yondashuvni tarkib toptirish, yangi g'oya va nuqtai nazarlarni erkin ifoda etish, fikrning egiluvchanligi va tasavvurning boyililigini tarkib toptirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon tushuniladi", - degan xulosaga keladi. Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, F.A.Xayitova kreativ o'qish madaniyatiga tushunchasiga quydagicha izoh beradi: "kreativ o'qish madaniyati – shaxs va jamiyat qiziqishlari bilan bog'liqlikda o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy shart sharoitlar doirasiga taalluqli vazifalarni hal etishda insonning konstruktiv va original fikrlashga tayyorligidir" [3].

Olimaning fikrlarini rivojlantirgan holda biz ham ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ ko'nikmalarini turli o'quv topshiriqlarini bajartirish orqali, o'quv muammoli topshiriqlarni, muammoli vaziyatlarni hal etishda noodatiy yondashuvni tarkib toptirish, yangi g'oya va nuqtai nazarlarni erkin ifoda etish, fikrning egiluvchanligi va tasavvurning boyililigini tarkib toptirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etish imkoniyatlaridan samarali foydalandik.

Ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish masalalari xususida izlanishlar olib borgan tadqiqotchi R.Xurramov og'zaki mashqlarni ona tili darslarida qo'llash o'quvchilarning fikrlash doirasini rivojlantirishda muhim o'rin egallashini ta'kidlaydi. Uning fikricha "Og'zaki mashqlar o'quvchilarga hodisaning mohiyatini tezda ko'rish, tushunish va uning bajarilishini to'g'ri izohlay olish imkoniyatini beradi. Yozma mashqlarni bajarish davomida esa, ona tili darslarida o'quvchilar voqea hodisaning mohiyatini anglab olishga qiyinaladilar. Og'zaki mashqlar sinfdagi har bir o'quvchi bilan individual ishlashga imkoniyat yaratadi" [4]. Demak, og'zaki mashqlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash vositasi hamda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, o'quv jarayoni mahsuldorligini oshirish borasida katta imkoniyatlarga ega. Ona tili ta'limida o'quvchilarning evristik qobiliyatini

rivojlantirishda ijodiy izlanishlar, o'qitishning nazariy asoslari to'g'risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holda muvaffaqiyatli sanaladi.

Kreativ ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha integratsiya qilish muhimdir. Shuningdek, kreativ ko'nikmalarni mustaqil tarzda rivojlantirish sifatida ona tili fanidan sinfdan tashqari ishlar (to'garak) dasturiga kiritish o'quvchilarga kreativ ko'nikmalarini real sharoitda qo'llash imkonini beradi. Ushbu fanlararo yondashuv talabalarni muammolarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilishga undaydi va ularning kreativ ko'nikmalarini kelajakdagi faoliyatiga o'tkazish uchun sharoit yaratadi.

Bizningcha, ona tili o'qitishda kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish mantiqiy shakllantirish yordamida amalga oshiriladi, ya'ni fikran mazmun-vazifaviy reja shakllantiriladi. U manbalardagi ma'lumotlarning representativligini tekshirishda, dalillarning ishochligini, farazlar va nazariyalarning haqiqiylikni tekshirish imkonini beradi. Masalan, kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini o'rganish uchun uni modellashtiradigan bo'lsak, bunda pedagogika, psixologiya, metodika hamda kreativ ko'nikmalarning o'ziga xosligi, omillari, rivojlantirish jarayonini ham e'tiborga olish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida fanlararo yondashuv uslubining qo'llanilayotganligini ham anglatadi. Bu jarayonda bir holatni hisobga olish kerakki, boshqa bir fanning modelini to'g'ridan-to'g'ri jalb etish maqsadga muvofiq emas, uni fanining tuzilishi mohiyati nuqtayi-nazaridan shakllantirish lozim bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonining o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'lib, bu o'quvchilarda yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirish, ularning tasavvurlarni ta'sirchan tarzda ifodalash, bilim olishni rag'batlantiruvchi, original va samarali yechim topishga yo'naltiruvchi g'oyalarni shakllantirish, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarish, o'quvchilarning g'oyalar yaratish jarayonida qay darajada ishtirok etishi, g'oyalarning ahamiyati va yangiligini inobatga olib, ularga nisbatan o'z munosabatlarini qay tartibda bildirishini va o'zlari kutgan natijaga erishmagunga qadar g'oyalarni yaratishda davom etish jarayoni bilan bevosita bog'liq.

Ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish uning pedagogik shart-sharoitlari, imkoniyatlarini aniqlashga, o'quvchilarda kreativ ko'nikmalarni yanada rivojlantirishning maqbul shakl, usul, vosita va yo'llarini aniqlashga yordam berdi, o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish sifati va motivatsiyasi barqarorligini ta'minlash kabi vazifalarni hal qildi.

O'quvchilarning kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda o'quv-tarbiya jarayoni natijaviyligiga alohida e'tibor qaratilib, takomillashtirilgan metodik tizimni ishlab chiqish zarurligiga urg'u berilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativ ko'nikmalarni

rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish metodik tizimni yaratishga oid ilmiy jihatdan asoslangan takliflar, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish, muloqot va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Zero, kreativ fikrlaydigan, iqtidorli yoshlarni ijodkorlik faoliyatiga jalb etish, ijtimoiy va shaxsiy faolligi kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini, innovatsion yondashuvni tizimli tarzda tashkil etishning metodologik asoslari yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini oshirishning, shuningdek, interfaol ta'limni mediatexnologiyalar vositasida tashkil etishning didaktik ta'minotini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ona tili o'qitishda kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish mantiqiy shakllantirish yordamida amalga oshiriladi, ya'ni fikran mazmun-vazifaviy reja shakllantiriladi. U manbalardagi ma'lumotlarning representativligini tekshirishda, dalillarning ishochligini, farazlar va nazariyalarning haqiqiylikni tekshirish imkonini beradi. Masalan, kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini o'rganish uchun uni modellashtiradigan bo'lsak, bunda pedagogika, psixologiya, metodika hamda kreativ ko'nikmalarning o'ziga xosligi, omillari, rivojlantirish jarayonini ham e'tiborga olish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida fanlararo yondashuv uslubining qo'llanilayotganligini ham anglatadi. Bu jarayonda bir holatni hisobga olish kerakki, boshqa bir fanning modelini to'g'ridan-to'g'ri jalb etish maqsadga muvofiq emas, uni fanining tuzilishi mohiyati nuqtayi nazaridan shakllantirish lozim bo'ladi.

Xulosa. Ona tili ta'limida kreativ ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash va ularning nutq madaniyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada kreativ yondashuvlarning o'quv jarayonidagi o'rni tahlil qilinib, samarali metodlar asosida ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion va interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning ona tili darslariga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Mustaqil izlanish, muammoli ta'lim va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravon bayon qilishga o'rganadilar. Shuningdek, ona tili ta'limida kreativ tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlarning samaradorligi yuqori ekani aniqlandi. O'quvchilarni faollikka undaydigan yondashuvlar ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini kuchaytirib, nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kelgusida ona tili darslarida ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni yanada takomillashtirish va amaliyotga kengroq joriy etish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Shu bois, pedagoglar zamonaviy o'qitish usullari va texnologiyalaridan samarali foydalanishlari zarur.

Adabiyotlar

1. Lucas B. and E. Spencer (2017), Teaching Creative Thinking: Developing Learners Who Generate Ideas and Can Think Critically., Crown House Publishing, <https://bookshop.canterbury.ac.uk/Teaching-Creative-Thinking-> Sternberg, R. (2006), "The nature of creativity", Creativity Research Journal, Vol. 18/1, -P. 87-98.
2. Muxtarova L.A. Развитие и формирование критического мышления у школьников начальных классах. Гуманитарный трактат. (24), 2018. 13-14.

3. Xayitova F.A. Boshlang'ich sinflarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirish texnologiyalari. Avtoreferat. – Toshkent: 2023. 28-b.

4. Xurramov R.S. Ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirish. Avtoreferat. –Termiz: 2024. 48-b.

REZYUME. Ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqolada ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishning metodologiyasi ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini shakllantirishda muhimligi ilmiy jihatdan asoslangan.

РЕЗЮМЕ. Развитие творческих навыков на уроках родного языка – одно из важнейших направлений образовательного процесса. В данной статье проанализирована методика развития творческих навыков на уроках родного языка на основе результатов научно-исследовательской работы. Также научно обосновано значение научных подходов, направленных на развитие креативного мышления, в развитии культуры речи, формировании логического и критического мышления учащихся.

SUMMARY. The development of creative skills in native language lessons is one of the most important areas of the educational process. This article analyzes the methodology of developing creative skills in native language lessons based on the results of research work. The importance of scientific approaches aimed at the development of creative thinking in the development of speech culture, the formation of logical and critical thinking of students is also scientifically substantiated.

SALOMATLIKNI SHAKLLANTIRISH VA QO'LLAB-QUVVATLASHGA ILMIY YONDASHUV

P.J.Mamutov – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

N.M.Bobojonov – *dotsent*

Farg'ona davlat universiteti

Tayanch so'zlar: sog'lom-turmush tarzi, sog'lomlashtiruvchi jismoniy madaniyat, jismoniy faollik, ratsional ovqatlanish, psixoemotsional sog'liq, zararli odatlar.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, оздоровительная физическая культура, физическая активность, рациональное питание, психоэмоциональное здоровье, вредные привычки.

Key words: healthy lifestyle, wellness physical culture, physical activity, balanced nutrition, psycho-emotional health, bad habits.

Kirish: Inson sog'ligini mustahkamlash va turli kasalliklarning oldini olishda sog'lom-turmush tarzining (STT) roli beqiyosdir. Bu tushuncha o'z ichiga insonning jismoniy harakati, ratsional ovqatlanishi, zararli odatlardan saqlanishi hamda ruhiy barqarorligini oladi. STTning asosiy tarkibiy qismlarini chuqur va tizimli o'rganish orqali jamoaviy salomatlikni yaxshilash hamda yurak-qon tomir, qandli diabet va onkologik kasalliklar kabi noinfektsion kasalliklarning tarqalishini kamaytirish mumkin [1].

STT tushunchasi surunkali hamda ko'p tarqalgan kasalliklar profilaktikasida muhim omillardan biri hisoblanadi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga binoan, inson salomatligiga ta'sir etuvchi omillarning ko'proq qismini taxminan 60 %i – to'g'ridan-to'g'ri insonning yashash turmush-tarzi bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, jismoniy faoliyat bu omillar ichida yetakchi o'rinni egallaydi.

Sog'lomlashtiruvchi jismoniy madaniyat (SJT) jismoniy madaniyatning eng muhim qismi bo'lib, insonning individual xususiyatlariga moslashtirilgan jismoniy mashqlar orqali salomatlikni saqlash va mustahkamlashga yo'naltirilgan. Ushbu maqolada jismoniy harakatsizlik (gipodinamiya) va stressga bog'liq kasalliklarning ortishi kontekstida dolzarb mavzu bo'lgan umumiy jismoniy madaniyatning jismoniy tarbiya kontseptsiyasiga integratsiyalanuvi muhokama qilinadi [3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Piskunov va boshqalarning asarlari va Svehkarov va boshqalar [1,2] sog'lom-turmush tarzining ko'p qirraliligini va aholi salomatligi uchun muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu ma'lumotlarda SST jismoniy, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Xulosa qilib aytganda, jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish va yomon odatlardan voz kechish sog'lom-turmush tarzining

asosiy tarkibiy qismi bo'lib, inson salomatligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Jismoniy faollikning ahamiyati. Jismoniy harakatlar sog'lom-turmush tarzining muhim ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Svehkarov va boshqalar o'z tadqiqotlarida muntazam jismoniy harakat nafaqat salomatlikni mustahkamlash, balki psixologik yetuklikka ijobiy ta'sirini ko'rsatishi, stress va tashvish darajasini pasaytirishini ta'kidlaydi. Muhim nuqta shundaki, ijobiy natijaga erishish uchun jismoniy harakatlar muntazam turda amalga oshirilishi hamda yosh va jismoniy holatga mos kelishi kerak.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, jismoniy faollik salomatlikni ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lib, jismoniy faollikning yetishmasligi Noinfektsion kasalliklarning rivojlantirishiga va erta o'limga sabab bo'lishi mumkin. Lee va boshqalar jismoniy harakatsizlik (gipodinamiya) butun dunyo bo'ylab uzoq umr ko'rish davomiyligi va salomatlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ko'pgina tajribalar, jumladan, Lee va boshqalar, jismoniy harakatnin pasayishi (gipodinamiya), yurak-qon tomir kasalliklari va semirish kabi kasalliklarning tarqalishi o'rtasidagi kuchli bog'liqlikni ta'kidlaydi. Ushbu kasalliklar butun dunyo bo'ylab erta o'limning asosiy sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bauman va boshqalar, dunyo aholisining 30% dan ortig'i tavsiya qilingan jismoniy faollik darajasiga ega emas, bu noinfektsion kasalliklarning rivojlanishi uchun muhim xavf tug'diradi [4,5].

Global tendentsiyalar va muammolar. Bauman va boshqalarning mehnatlarida jismoniy harakatsizlik (gipodinamiya) texnologik taraqqiyot va shahar zichligi bilan bog'liq dolzarb muammo ekanligini ta'kidlaydilar. Bu jismoniy faoliyat darajasini oshirish maqsadida samarali strategiya va dasturlarni ishlab chiqishni talab qiladi [2, 5].